

## ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY YOZISHMALARI

Furqatova Madina

*Samarqand Davlat Chet tillari instituti Ingliz tili  
filologiyasi va Tarjimashunoslik fakulteti 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy madaniy taraqqiyoti bevosita uning tarixiga borib taqaladi. Maqolada Abu Ali ibn Sinoning falsafiy yozishmalari to'g'risida, uning qaysi olim-mutafakkirlar bilan aloqada bo'lganligi haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** Falsafa, hurfikrlilik, mafkura, falsafiy yozishmalar, "ash-Shifo kitobi, axloqiy madaniyat, mistika (zuhd), aqida, Uyg'onish davri, stixiyali materialistik, "an-Najot" kitobi.

Bugun yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash zamon talabiga aylandi. Insonning milliy ahloqiy barkamolligini ta'minlash uchun ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, jumladan, umumiy ta'lim maktablarida xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, tiliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat, insonparvarlik, iymon-e'tiqod, mehnatsevarlik tuyg'ularini va har bir yosh avlod ongiga singdirish va har bir yosh avlodga o'zining tarixiga mehr tushunchasini uyg'otish talab etiladi. Zero, tarixsiz kelajak yo'qdir. Shu jumladan, bobomiz, olim va mutafakkir Abu Ali ibn Sino haqida ham bilim va ko'nikmalarimizni yanada rivojlantirishimiz lozim desam, sira mubolag'a bo'lmaydi. Ular bizning ma'naviyatimiz rivojiga salmoqli hissa qo'shganlar.

Buyuk vatandoshimiz Ibn Sino o'z davri fani va falsafasining deyarli barcha sohalarida serqirra va sermahsul ijod qilgan va o'zidan keyin boy ilmiy-falsafiy meros qoldirgan. Bu merosning muhim qismini Abu Ali ibn Sinoning turli olim va faylasuflar bilan falsafa va fanning turli mavzulardagi bahslashuvini aks ettirgan va hukmron islom mafkurasi, kalom, tasavvuf, mistika (zuhd) va hokazo oqimlarning ayrim vakillari bilan bo'lgan bahslarda ilg'or tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarini, hurfikrlilik tendentsiyalarini Ibn Sino tomonidan diniy-mistik iboralar niqobida qanday ifodalanganligi va himoya qilinganligini ko'rsatuvchi yo-zishmalar tashkil etadi.

Bu yozishmalarda, O'rta va Yaqin Sharq Uyg'onish davrining asosiy xususiyatlari-islom aqidalari, kriatsionalizm va fatalizmga salbiy munosabat, ularga panteizm, ratsionalizm va gumanizmni qarama-qarshi qo'yish, insonni o'rta asrlar biqirligi, sxolastikasi, diniy aqidachiligi, diniy tasavvurlarga ko'r-ko'rona e'tiqod qilish sirtmog'idan ozod qilish, erkin fikrning keng yo'lga olib chiqishga intilish kabi tendentsiyalar o'zining yorqin ifodasini topgan. Bu mulohazaning dalili sifatida quyidagi holatni qayd qilib o'tish maqsadga muvofiqdir. Quyida so'z yuritiladigan yozishmalarda Uyg'onish davrida shakllangan "hayotbaxsh hurfikrlilikning" asosiy muommolari va g'oyaviy kompanentlari, uning asosiy vakillari o'zining to'laqonli aksini topgan. Xususan, Beruniy, ibn Sino, Juzjoni, Baxmanyor va boshqalar hurfikrlilikning nazariy

asosini tashkil etgan g'oyaviy komponentlar-empirizmga moyil falsafa (tabiiyun) va Sharq peripatitizm (mashshaiyun) vakillari bo'lgan bo'lsalar, boshqalari kalom ta'limoti vakillari, mashhur sufiy mutafakirlar (masalan, Abu Said ibn Abul-Xayr) astrologiya va boshqa fanlar vakillaridir.

Bu yozishmalar hurfikrlilikning asosiy g'oyaviy komponentlari bilan rasmiy islom mafkurasi o'rtasidagi kurashni, ular o'rtasidagi ontologik, gnoseologik va ijtimoiy-siyosiy platformaga oid printsipial qarama-qarshilikni ham aks etiradi. Bundan tashqari, bu yozishmalar hurfikrlilikning o'z ichki ziddiyatlarini, chunonchi, uning g'oyaviy komponentlari o'rtasidagi farqlarni, ular o'rtasida borgan bahs va munozaralarning asosiy mavzularini ham tasavvur qilish imkonini beradi.

Yuqorida qayd etilgan mulohazalar ibn Sino yozishmalarining Sharq, xususan, O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikri taraqqiyotini, undagi hurfikrlilik, stixiyali materialistik va antiklerikal tendentsiyalarini o'rganishda beqiyos muhim ekanligini ko'rsatadi. Ilmiy-falsafiy, manbashunoslik, sharqshunoslik va boshqa tadqiqotlarda, ibn Sinoning Beruniy bilan yozishmasini hisobga olmaganda, yozishmalar yaxlit holda, qiq qilinmagan desa bo'ladi.

Abu Ali ibn Sinoning sevimli shogirdi va do'sti Abu Ubayd Juzjoniy o'z ustozlari asarlarining fehrefstini tuzib, uning 25 ga yaqin falsafiy yozishmasini va savol-javoblarining nomlarini keltiradi. Yozishmalarni yuborilgan kishilarga va ularning mazmuniga qarab quydagicha guruhlash mumkin:

I guruh. Din va tasavvuf vakillari bilan umumiyroq ahamiyatga ega bo'lgan yozishmalar. Bunda gap u yoki bu din arbobi, sufiy bilan muayyan masaladagi tortishuv haqidagina emas, balki ibn Sinoning o'z zamonasidan ilgarilab ketgan ilmiy, stixiyali materialistik va hurfikrlilik qarashlarini din, kalom ta'limoti nuqtai nazaridan "oqlash", ularni himoya qilish va xavfsizligini ta'minlash ustida ham boradi. Bu guruhga ibn Sinoning Abu Said ibn Abu-l-Xayr Al-Mayxonaiga tabiiy quvvatlar, mantiqdagi qiyos usuli, qazo va qadar, jonning badanga aloqasi to'g'risida va boshqa xususlarda bergan javoblarini, shuningdek Sayid ibn Jubayr degan kimsaga zuhd (mistika, kengroq qilib aytganda, sufizm) xususidagi javob risolasini kiritish mumkin.

II guruh. Mutakallimlar bilan bo'lgan yozishmalar. Bu yozishmalar xususiyoq axamiyatga ega bo'lib, ularda ibn Sino mutakallimlarni ilm-fan falsafa va aql dalillarini soxtalashtirishda va ularni din, ilohiyotni asoslashda foydalanayotganlari xususida tanqid qiladi va qoralaydi. Bu xususan "Miqdor javhardir degan kishining xatosi to'g'risida", "Bir narsa ham javhar, xam araz bo'ladi degan kishining xatosi to'g'risida" deb nomlangan maqolalarning, shuningdek, "Ba'zi mutakallimlarga javob kitobi"ning tashkil etadi. Ibn Sino ko'rsatgan xatolar mutakallimlar tomonidan ataylab chalkashtirilgan bo'lib, bu bilan ular obyektiv olamning asosini tashkil etuvchi substantsiyalar va atributlarning barqarorligi va buzilmasligi, shuningdek, obektiv olam qonuniyatlarining o'zgarmasligi to'g'risidagi faylasuflar ta'limotini rad qilishga uringanlar.

III guruh. Ilm fanni chuqur egallamagan, lekin o'zini mashhur tabib, munajjim deb hisoblovchi bilimsizligi orqasida fanga xurofiy tasavvurlarni olib kiruvchi kishilar bilan

bo'lgan yozishma-radnomalar. Bunday radnomalar "Abu-l-Faraj maqolasini rad qilishga bag'ishlangan risola", "Abu Tohir ibn Hasulga yuborilgan risola", "o'zini mashhur tabib deyuvchi Abu Tohirga risola" va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Ibn Sino bunday soxta olimlarni yozishmalaridagina emas, balki "ash-Shifo kitobi", "an-Najot kitobi"da, shuningdek, astrologiya va alximiyaga bag'ishlangan maxsus asarlarida ham fosh qilgan va qoralagan.

IV guruh. Ba'zi falsafiy maktablar va ularning ayrim vakillari bilan bo'lgan munozaralar. Bunda eng avvalo ibn Sinoning bag'dodlik olimlarga o'zi bilan hakimlikni da'vo qilgan hamadonlik kishini bir yerga jam qilishni so'rab yozgan, shuningdek, yaqin bir do'stiga ham ana shu hamadonlik bilan uchrashtirishni so'rab yozgan xatlarini ko'rsatish zarur. Bu xatlarda Hamadonlik bir faylasuf qarashlarining asossizligi ko'rsatiladi.

V guruh. Yozishmalar orasida ibn Sinoning Abu Rayxon Beruniy bilan savol-javoblarini alohida ko'rsatish zarur. Bu mashhur yozishmada Sharq "xayotbaxsh hurfikrliligi" o'z rivojining oliy bosqichiga ko'tarildi. Buni yozishmaning diniy masalalardan, suxolastik usullardan ozodligida, sof fan va falsafa masalalarini ko'targanligida (xususan, Aristotel naturfilosofiyasining yetarli asoslanmaganligi va h.k), bularning hammasi qizg'in falsafiy munozaralarda yuzaga chiqqanligida ko'rish mumkin.

VI guruh. Bu yozishmalar orasida ibn Sinoning o'z shogirdlariga, asarlarining u yoki bu yerini qanday tushunishni ko'rsatishga bag'ishlanganlari ham bor. Bunda shogirdi Bahmanyor ibn Sinoning asosiy falsafiy asari "Shifo kitobi" sharhini o'qib, unda ziddiyatli va ijmo (juda katta diniy nazariyotchilarning diniy aqidalar xususida bergan xulosasi – Z.A.) ga qarama-qashi fikrlar borligini va ibn Sinodan ularni tushuntirib berishni so'rab murojaat qilganda bergan javobini qayd qilib o'tish mumkin. Ibn Sinoning javobida Bahmanyorning o'zi so'ragan savollari bo'yicha "Shifo kitobi" ni diqqat qilib o'qimaganligini va umuman bu to'g'rida hali bo'shligini yozadi. Bunda ibn Sinoning o'z shogirdi Bahmanyorga o'z asarlarini diqqat bilan o'qimaganligi va hali bo'shligi to'g'risidagi ginasiga diqqatni qaratishi o'rinlidir. Bizningcha, Bahmanyor ibn Sino qarashlarining stixiyali materialistik mohiyatini to'g'ri tushuna bilgan-u, lekin bu hurfikrlilik qarashlari ibn Sino tomonidan diniy iboralarga moslashtirib ifodalaganligini tushuna olmagan va buni o'zicha ibn Sino qarashlari ziddiyati deb bilgan. Xolbuki, ibn Sinoning barcha asarlarida Forobiydan, hatto Aristoteldan meros bo'lib qolgan qoida-o'zining haqiqiy qarashlarini dindorlar, mutaassiblarning tasavuriga moslab tushuntirish va bu bilan falsafa va fanni, ular bilan shug'ullanuvchilarning xavfsizligini saqlash to'g'risidagi qoidaga amal qilingan. Ibn Sinoning qizishib Bahmanyorga diqqat qilib o'qimagan va bo'shsan deyishining boisini faqat shunday izohlash mumkin.

Bu guruhga, shuningdek, ibn Sinoning o'z sevimli shogirdi Abu Ubayd Juzjoniyya javob risolasini kiritish zarur. Juzjoniyy ham Bahmanyorga o'xshab, ibn Sino qarashlarining Qur'onga ziddligi va buni oydinlashtirib berishni so'rab murojaat qilgan. Ibn Sinoning nima deb javob berganligini bilmaymiz, chunki yozishma bizgacha yetib kelmagan. Ibn Sinoning qadar xususida Abu Saidga yozgan javobini tushunishda eng avvalo mutakallim al-G'azzoliy tomonidan ko'rsatib o'tilgan Forobiy va ibn Sino falsafiy

sistemasining 3 ta qufrona xulosasini- olamning azaliy va abadiyligi, undagi juziy narsalar to'g'risida bilimga ega emasligini nazarda tutushimiz zarur. Chunki qadarning ibn Sino bergan izohidan ham shu xulosa kelib chiqadi.

Ibn Sino yashagan davr fani, falsafasi o'z tarixiy va nazariy cheklanganligi tufayli olam, ijtimoiy va shaxsiy hayot asosida yotuvchi eng umumiy dialektik qonuniyatlarni tushunib yetish imkonini bermas edi. Hukmron diniy mafkura, kalom tazyiqi bunga yo'l qo'yishi ham mumkin emas edi. Shuning uchun ham Ibn Sino Farobiy va boshqa ilg'or mutafakkirlarga o'xshab dunyo, ijtimoiy va shaxsiy hayot asosida yotuvchi qonuniyatlarni to'g'risidagi o'z zamonasidan ilgari ketgan bashoratlarni islomning taqdir aqidasi aqliy va majoziy talqin yo'li bilan ifodaladi. Insoniyat tarixida shunday shaxslar bo'ladiki, ular o'zlarining fidoyiligi, yaxshi insonlarga xos bo'lgan fazilatlar mujassamlashganligi, bilim va ilmlari bilan ko'pchilikka namuna va o'rnak bo'ladilar. Bunday siymolardan biri buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino deya aytib o'tsak mubolag'a bo'lmaydi. Ibn Sino nihoyatda iste'dodli, xotirasi o'tkir, zehnli bo'lganidan yoshligidanoq o'z davrida ma'lum bo'lgan barcha ilmlarni tez va chuqur egallagan. Tarixiy manbalarning xabar berishicha, u 10-13 yoshida mantiq, fiqh, falsafa, matematika, tibbiyot masalalari bilan shig'ullangan.

U o'z ilmi, merosi bilan o'rta asr Sharqining ilmiy-madaniy qudratini butun dunyoga namoyon qildi. Butun insoniyat madaniyatining rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Shuning uchun ham ibn Sino Jahon madaniyatining buyuk siymosi, insoniyat uchun xizmat qilgan olim, buyuk tabib, eng katta faylasuf, tabiatshunos, insonshunos, mashhur ensiklopedist sifatida tan olindi. Olim sifatida u o'z davri ilmining deyarli barcha sohalari ustasi bo'lgan. Turli yozma manbalarda uning 450 dan ortiq asar yozganligi eslatiladi. Shu bilan birgalikda u axloqqa doir bir qancha risolalar yaratgan, chunki, uning "Tadbir al-manozil", "Risola fi-ilmi axloq", "Risola fi-l-ahd", "Risola siyosat al-badan", "Kitob al-ansof" va hokazolar. Ibn Sino fikricha, har bir kishi o'z tabiatiga ko'ra biror quvvatga moyildir, inson o'zining qaysi quvvatga moyil ekanligini bilmog'i kerak. Yaxshi va yomon xulq odatga binoan paydo bo'ladi. Biz nimaga odatlangan bo'lsak, shu narsa xulqimizga o'rnatilib qoladi. Shuning uchun tarbiyani bolaning eng yosh paytidan boshlash kerak, zero, unga yaxshi xulq odat bo'lib qolsin.

Ibn Sino aytgan ajoyib fikr-mulohazalar, uning axloqiy qarashlari hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ibn Sinoning butun dunyo madaniyati xazinasiga qanchalik katta xissa qo'shganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish va, shu bilan birga falsafiy fikr taraqqiyotining umumiy manzarasini kishi ko'z oldiga yaqqol keltirishga katta yordam beradi. Bulardan ko'rinishicha, uning bu boradagi fikr-g'oyalari falsafa, axloq va etika fanini rivojlantirishga katta xizmat qilgani shubhasizdir.

Jamiyat taraqqiyoti tarixi shuni ko'rsatadiki, faqat ma'naviyat, ma'rifat keng quloq yoygan, ilm-fan taraqqiy etgan mamlakatdagina adolatli jamiyat qurish va unda mehr-oqibatli, kamolotli insonlarning shakllanishi mumkin. Bunday jamiyat fuqarolarida sog'lom fikr, aql-idrok har doim ustuvor bo'ladi. Ma'naviyati shakllangan, adolatli,

ma`naviyatli, imon-e`tiqodli yoshlarimiz qanday vaziyatda bo`lmasin, hamma vaqt o`ziga to`g`ri yo`l tanlay oladi. Bu yo`lda esa, albatta, har bir shaxs o`z Vatani, bobokalonlari tarixini bilishi joiz ekan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduazim Sodiqov va Abduvohid Sodiqov “Munavvar siymo”//”To quyosh sochgayki nur” mas`ul muharrir I.G`ofurov.-T.:O`zbekiston,2016 .285-b
2. A.Mahmudov, Q.Mahmudov”Abu Ali ibn Sinoning falsafiy yozishmalari to`g`risida”.- T.:Fan nashriyoti,1980. 184-190-b
3. Xayrullayev .M.M. “Uyg`onish davri va Sharq mutafakkiri” Toshkent, 1971 yil, 34-bet.
- 4.”Majmuat risoil al-hukamoi”, O`zFA Beruniy nomli Sharqshinoslik instituti qo`lyozmasi, Inv №2385—XI, 41-42-betlar
5. Mirzayev. S.”O`sha asar”, 21-22-betlar
6. Beruniy bilan ibn Sinoning savol-javoblari (arabcha matni va o`zbekcha tarjimasini A.Rasulov va M.Abduraxmonlar tayyorlagan), Toshkent, 1950.

